



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZİRİNİNG
BUYRUG'I**

2024 - yil «10» oktabr 374-son

Toshkent shahri

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligida korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tizimini joriy etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Korruptsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2020-yil 31-dekabrdagi 829-son qarori talablari ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Vazirlik markaziy apparatining departamenti, boshqarma va bo'limlari boshliqlari, tizim tashkilotlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar boshqarmalari, davlat oliy ta'lif muassasalari va professional ta'lif tashkilotlari rahbarlariga:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Korruptsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2020-yil 31-dekabrdagi 829-son qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin;

mazkur qaror va uning ilovasida keltirilgan "Korruptsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida nizom" talablarini tegishliligi bo'yicha barcha xodimlar, professor-o'qituvchilar, talabalar va o'quvchilarga yetkazsin.

2. **Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'limi** (Parmanov), vazirlik tizimidagi korruptsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmalari yuqorida qayd etilgan qaror va nizom mazmuni va mohiyati doimiy ravishda keng jamoatchilikka yetkazib borilishini ta'minlansin.

3. Mazkur buyruq ijrosi nazorati vazir o'rindbosari S. Buzrukxonov zimmasiga yuklansin.

Vazir



K. Sharipov

NUSXA
ASLIGA TO'G'RI